

UDK: 619:636.59:616-084:577.165.8

BEDANALARDA GIPOVITAMINOZLARNI PROFILAKTIKASI

Ro'ziyev Sh.

Magistrant

Samarqand davlat vetrinariya meditsinasi
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bedanalarda uchraydigan gipovitaminozlarni profilaktika qilishda Introvit A+BC preparatining samaradorligi haqida bayon etilgan. Introvit A+BC preparatini bedanalarga 1 litr suvga 1 g miqdorda qo'shib berish ularda tana vazni va tuxumning vaznini me'yorlar darajasida yaxshilaydi.

Kalit so'zlar: bedanalar, vitaminlar, mineral moddalar, gipovitaminozlar, etiologiya, anemiya, raxit.

SAMARKAND STATE UNIVERSITY OF VETERINARY MEDICINE, LIVESTOCK AND BIOTECHNOLOGIES

ABSTRACT

This article describes the effectiveness of the drug Introvit A + BC in the prevention of hypovitaminosis in quails. Adding 1 g of Introvit A+BC to 1 liter of water improves body and egg weight of quails to a standard level.

Key words: quails, vitamins, minerals, hypovitaminosis, etiology, anemia, rickets.

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье описана эффективность препарата Интровит А+ВС в профилактике гиповитаминозов у перепелов. Добавление перепелам препарата Интровит А+ВС в количестве 1 г на 1 л воды приводит к повышению их живой массы и массы яиц до нормативного уровня.

Ключевые слова: перепела, витамины, минеральные вещества, гиповитаминоз, этиология, анемия, рахит.

KIRISH

Bugungi kunda Respublikamiz aholisini parrandachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirishda bedana mahsulotlari ham muhim o'rin tutadi. Bedana tuxumlari tovuq tuxumlariga nisbatan A, PP, B₁, B₂ vitaminlari va mineral moddalar tarkibi bo'yicha o'nlab foiz yuqori, ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha esa bir necha barobar yuqori ko'rsatkichlarga egadir. Bedana tuxumi tarkibidagi oqsillar, yog'lar, uglevodlar va mineral moddalarning nisbati o'zgacha takrorlanmas bo'lib, inson organizmi uchun deyarli juda mos keladi.

Yurak, kamqonlik, gipertoniya, gastrit, oshqozon yarasi, qandli diabet, astma, tuberkulyoz, pnevmoniya, anemiya va ayrim ko'z kasalliklarida bedana tuxumi va go'shtini ist'emol qilib turish shu xastaliklarga qarshi shifobaxsh darmon hisoblanadi va juda katta yordam beradi. Nurlanish kasalligida bedana tuxumi radionuklidlarni organizmdan chiqarish xususiyatiga ega. Tovuq tuxumlariga allergiyasi bor insonlarga bedana tuxumi mutlaqo zararli emas, hatto ularning allergiyadan tuzalishiga yordam beradi. Har bir sog'lom inson uchun har kuni ertalab va kechqurun 3 donadan bedana tuxumi 1,5 oy davomida iste'mol qilish tavsiya etiladi [2,3,5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.02.2022 yildagi PQ-120-son "O'zbekiston respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risi"dagi qarorida parrandachilik sohasini rivojlantirish, mamlakat aholisini yuqori sifatli parranda go'shti va tuxum mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, ichki va tashqi bozorlarga mahalliy parrandachilik mahsulotlarini sotishni ko'paytirishga qaratilgan choratadbirlar belgilangan. Aholi xonadonlarida parranda boqish ishlari parrandachilik korxonalarini bilan kooperatsiya tizimi asosida tashkil etish hamda aholining bandligi ta'minlanib, daromadlarini oshirish, parrandachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish, ilg'or xorijiy davlatlar tajribasiga asosan parrandachilik klasterlarini tashkil qilish va innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etish, parrandachilik mahsulotlari turlarini ko'paytirish va bozor munosabatlarini yanada kuchaytirish maqsadida parrandachilikning kurkachilik, bedanachilik, g'oz va o'rdakchilik hamda tuyaqushchilik kabi yo'nalishlarining ommaviylikini oshirish choralarini ko'rish kabi muhim dolzarb vazifalar belgilab berilgan [1,4].

Shu boisdan bedanalarda uchraydigan kasalliklarni aniqlash, davolash va oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga keng joriy qilish dolzarb hisoblanadi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Bedanalarda gipovitaminozlarni oldini olishda Introvit A+BC preparatining samaradorligini aniqlash maqsadida Samarqand tumani "Xo'jagunjoyish" MFY ga qarashli xususiy tadbirkor qaromog'ida bo'lgan Yapon zotiga mansub 135 bosh

bedanalarda o‘tkazildi. Birinchi tajriba guruhidagi 75 bosh bedanalarga 1 litr suvga 1 g Intirovit A+BC (vitamin-minerallar) preparatdan, 15 kun davomida (5 kunlik tanaffus bilan) berib borildi. Nazorat guruhidagi 60 bosh bedanalarga faqat suvni o‘zi berildi. Tajribalar uchun ajratib olingan 135 dona bedanalarni klinik ko‘rikdan o‘tkazish bilan umumiy holati, oziqa iste‘moli, patlar, oyoqlar va tumshuqlar holati, tana vazni, tuxumining vazni aniqlandi. Tajribalar 25 kunlikdan boshlab, 40 kunlikgacha o‘tkazildi.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Bedanalar bino ichida maxsus qafaslarda saqlanadi. Oziqlantirish kuniga 3 marta amalga oshiriladi. Oziqasi har xil mevalar po‘stlog‘i va bug‘doy kepagi, makka doni yormasining aralashmasidan iborat. Bedanalar oziqa ratsioni bir tomonlama asosan uglevodli tipda ekanligi, protein va vitamininga boy bo‘lgan oziqalarning yetishmasligidan dalolat beradi. Bedanalarning oziqa iste‘moli bir kunda bitta bedana hisobiga 12-27 grammni tashkil qiladi.



Birinchi tajriba guruhidagi 75 bosh bedanalar klinik tekshirishlar o‘tkazilganda umumiy holsizlanish, ishtaha kamayishi, patlarning hurpayishi, oyoq muguzining qalinlashishi, tumshuq yaltiroqligining pasayishi, terining quruqlashishi, bo‘g‘inlarning kattalashishi kabi klinik belgilar aniqlanmadi. Bunday klinik belgilar bo‘lmasligi tuxum berishning jadallashgani sari mahsuldorlikning ko‘payishiga erishildi. Adabiyot manbalariga ko‘ra bu klinik belgilar bedanalarda B guruhi vitaminlarining yetishmasligini oldi olinganligini bildiradi [3,6,7].

Tajribalarning boshida bedanalarning tana vazni o‘rganilganda o‘rtacha 25 kunlikda 125,4 grni tashkil qilgan bo‘lsa tajribalarning oxiriga kelib 55 kunlikda 354,4 gr ni tashkil qildi (me‘yorda 55 kunlik yoshida tirik vazni 340-355 gramm) tashkil etdi.

Tajriba guruhdagi bedanalardan olingan tuxumning o'rtacha vazni 45 kunlikda 8,65 gr ni tashkil etgan bo'lib, 55 kunlikda o'rtacha 10,8 gr ni tashkil etdi (Tuxumning me'yorida vazni 9-12 gramm)

Nazorat guruhdagi badanalarda tekshirishlarning oxirga kelib bedanalar klinik tekshirishlardan o'tkazilganda ularning o'rtacha 40-50% da umumiy holsizlanish, ishtaha kamayishi, patlarning hurpayishi, oyoq muguzining qalinlashishi, tumshuq yaltiroqligining pasayishi, 10-20% bedanalarda terining quruqlashishi, bo'g'inlarning kattalashishi kabi klinik belgilar aniqlandi. Bunday klinik belgilar tuxum berishning jadallashgani sari saqlanib qolish mahsuldorlikning kamayishi bilan xarakterlandi.

Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, ularning ratsioni vitaminlar bilan balanslashgan oziqalar bilan oziqlantirmaslik anemiya, holsizlanish, vazn to'planishining kamayishi, tuxum mahsuldorligining kamayishiga sabab bo'lishi mumkin. Bedanalarning tana vazni o'rganilganda o'rtacha 25 kunlikda 125,4 gr, 55 kunlikda 225,8 grammni (me'yorda 55 kunlik yoshida tirik vazni 340-355 gramm) tashkil etdi.

Tekshirilgan bedanalardan olingan tuxumning o'rtacha vazni 45 kunlikda 7,85 gr ni tashkil etgan bo'lib, 55 kunlikda o'rtacha 8,6 gr ni (Tuxumning me'yorida vazni 9-12 gramm) tashkil etdi.

XULOSA

1. Bedanalarda gipovitaminozlar o'rtacha 40-50% da umumiy holsizlanish, ishtahaning kamayishi, patlarning hurpayishi, oyoq muguzining qalinlashishi, tumshuq yaltiroqligining pasayishi, 10-20% bedanalarda terining quruqlashishi, bo'g'inlarning kattalashishi kabi klinik belgilar bilan kechadi.

2. Bedanalarda gipovitaminozlarni profilaktika qilish maqsadida 1 litr suvga 1 g Intirovit A+BC (vitamin-minerallar) preparatidan, 15 kun davomida (5 kunlik tanaffus bilan) berish nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhidagi bedanalarda mahsuldorlikning 18% ga ko'payishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.02.2022 yildagi PQ-120-son "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risi"dagi qarori. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.02.2022 y., 07/22/120/0132-son)
2. Bedanalarni boqish bo'yicha tavsiyalar / O'zbekiston Respublikasi "Parrandasanoat" uyushmasi; rahbar A.T.Isabayev; tuzuvchi X.I.Narmuxamedov. — Toshkent: 2013, 32b. <https://t.me/biznesmaslahat>.
3. Bakulin V.A. Bolezni ptis. Uchebnik. Sankt-Peterburg, 2006 god

4. Davlatov R.B., Salimov X.S., Xudjamshukurov A.N. Parranda kasalliklari bo'yicha o'quv qo'llanma. Samarqand, 2018. 230 bet.
5. Eshburiyev, S. B., Qarshiyev, U. T., & Yusupova, Z. (2022). Prophylaxis of mineral metabolism disorders in rabbits. *Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali*, 399-402.
6. Rakhmonov, U. A., Norboev, K. N., Ruzikulov, N. B., & Eshburiev, S. B. (2021). Results of group-prophylactic treatment of chicken hypovitaminosis. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 243-248.
7. Norboev, K. N., Rakhmonov, U. A., Ruzikulov, N. B., & Eshburiev, S. B. (2022). Effectiveness of Vitaprem and Probiotic Bio-3s in Group-Prophylaxis of Hens' Hypovitaminoses. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9 (11), 308-314.